
27 IYUN — MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN QO'SHTEPA TUMANI HOKIMI ILYOSBEK NOVIKOVNING BAYRAM TABRIGI



Hurmatli qalam sohiblari! Sizlarni **27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni** munosabati bilan samimiy muborakbod etib, inson qadri, yurt manfaati, vatan taraqqiyotini yuksaklarga ko'tarish yo'lidagi mas'uliyatli va sharaflil faoliyatingizda muvaffaqiyatlar tilayman.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning **“Haqiqatan ham, har qanday murakkab sharoitda ham adolat tamoyiliga, o'zining hayotiy va ijodiy printsiplariga sodiq qolish, odamlarni qiynayotgan kamchilik va muammolarni dadillik bilan ko'tarib chiqish, ularni bartaraf etish uchun jamoatchilik fikrini shakllantirishga, avvalo, sizlar kabi ma'naviy jasorat egalarigina qodir bo'ladi”**, – deya bildirgan fikrlari Siz qalam ahliga bo'lgan yuksak e'tiborning ifodasidir.

El-yurt manfaati va Vatanimiz salohiyatini bundan-da yuksaklarga ko'tarish yo'lidagi mas'uliyatli ishlaringizda yangidan-yangi zafarlar tilaymiz. Siz sharaflil kasb egalariga doimo g'ayrat, kuch va shijoat hamroh bo'lsin!

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-06-27 07:45:01